

# PEDAGOGIK FAOLIYATNING ASOSIY XUSUSIYATLARI

**Sayitov Sayyom**

**Navoiy davlat pedagogika instituti, Maktabgacha ta'lim kafedrası dotsenti**

**Annotatsiya:** Maqolada kasbiy faoliyatlarning muhim tarkibiy qismi hisoblangan pedagogik faoliyatni tashkil etish, uni takomillashtirish, pedagogik faoliyatning asosiy xususiyatlari tadqiq etilgan.

**Kalit soʻzlar:** pedagogik faoliyat, insonparvarlik, jamoaviylik, ijodiylik, pedagogik faoliyat maqsadi.

## MAIN CHARACTERISTICS OF PEDAGOGICAL ACTIVITY

**Sayyam Saitov**

**Navoi State Pedagogical Institute, Associate Professor of the Department of  
Preschool Education**

**Annotation:** The article discusses the organization of pedagogical activity, which is considered an important component of professional activity, its improvement, the main features of pedagogical activity.

**Key words:** pedagogical activity, humanism, collectivism, creativity, purpose of pedagogical activity.

Pedagogik faoliyat, yaxlit olganda bevosita oʻqituvchilik, pedagogik kasbi - juda qadimiy sanaladi. Unda avlodlar vorisiyligining minglab yillik tajribalari mujassamlashgan. Oʻqituvchi, oʻz kasbiy mohiyatiga koʻra - avlodlarni bir-biriga bogʻlaydigan boʻgʻin, insoniy, ijtimoiy, tarixiy tajribaning tashuvchisi. Xalqning ijtimoiy-madaniy bir butunligi, yaxlit taraqqiyotning oʻzi, avlodlarning vorisiyligi koʻp jihatdan pedagogik faoliyatga bogʻliq.

Pedagogik kasbining paydo boʻlishi obʻektiv hodisadir. Chunki agar katta avlod oʻrniga keladigan yosh avlod ular toʻplagan tajribani oʻrganmay, uni oʻrab turgan olamni qayta oʻrgana boshlashganida yedi insonlar jamiyati mavjud boʻlmas va rivojlanmas yedi.

Pedagogik faoliyat paydo bo'lgan vaqtdan boshlab, turli tarixiy taraqqiyot davrlarida mazmunan o'zgargan bo'lsada, uning asosiy vazifasi yoshlarga ta'lim berish, tarbiyalash, ularni ma'lumotli qilish bilan bog'liq bo'lgan. Yuqorida qayd etib o'tilganidek, barcha davrlarning yetuk mutafakkirlari pedagogik faoliyat, ta'lim va tarbiyaning ijtimoiy ahamiyatini alohida ko'rsatib o'tganlar. Shuning uchun pedagogik faoliyat muayyan xususiyatlarga ega.

Pedagog bir paytning o'zida ham shaxsning shakllanishi va qayta o'zgarishiga ko'maklashishi, ham uning aqliy, hissiy va jismoniy rivojlanish, shakllanish jarayonini boshqarishi kerak.

Pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- bilimlarni yaratish, ishlab chiqarish, ya'ni tadqiqotlar olib borish, ishlanmalar tayyorlash, yekspertizalar o'tkazish, yangilikni izlash va h.k.;
- ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida bilimlarni nazorat qilish;
- dasrlik, o'quv qo'llanma va boshqa o'quv-metodik materiallar, ilmiy maqolalar tayyorlash orqali bilimlarni tarqatish;
- o'quvchilarni tarbiyalash, ularning shaxsini shakllantirish va rivojlantirish.

Pedagogik faoliyatning sanab o'tilgan barcha xususiyatlari bir xilda ahamiyatga molik bo'lib, ular o'zaro aloqadorlikda amalga oshiriladi.

Pedagogik kasb mazmunining asosini tabiat, jamiyat taraqqiyotiga oid bilimlar, odamlar bilan muloqot qila olish va munosabatga kirishish ko'nikmalari tashkil yetadi. Binobarin, pedagoglik kasbi ikki tomonlama tayyorgarlikni - maxsus, predmetga oid hamda insonshunoslik, psixologik-pedagogik tayyorgarlikni talab yetadi.

Pedagogik faoliyatga tarixan ikki ijtimoiy vazifa yuklatilgan - moslashtiruvchi (adaptatsiya)lik va rivojlantiruvchilik.

Moslashtiruvchilik vazifasi o'quvchi, tarbiyalanuvchilarni bo'lajak ijtimoiy-madaniy vaziyatlarga, hayotga, faoliyatga moslashtirishni nazarda tutsa,

rivojlantiruvchilik vazifasi-insonning shaxsini, individualligini va mahoratini rivojlantirishni koʻzlaydi.

Pedagogik faoliyatning mazmun, mohiyatini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilar ekanmiz, mazkurni koʻrib chiqish maqsadga muvofiq. Pedagogik kasbning oʻziga xos xususiyatlari shundan iboratki, u oʻz mohiyatiga koʻra insonparvarlik, jamoaviylik va ijodkorlik xususiyatlarga yega.

Pedagogik kasbining **insonparvarlik xususiyati** uning inson tarbiyasiga, shaxsni shakllantirish va uni rivojlantirish funksiyalarini amalga oshirish bilan bogʻliq holda bola tomonidan insoniyat yutuqlarini oʻzlashtirilishiga qaratilgan boʻlib, shu orqali inson naslining davomiyligi, avlodlar vorisiyligi taʼminlanadi.

Pedagogik faoliyatning **jamoaviylik xususiyati** deganda shuni tushunish lozimki, taʼlim oluvchiga faqat bir oʻqituvchi yemas, balki oʻqituvchilar jamoasi, shuningdek, ona-onalar va boshqa guruhli va jamoaviy taʼsir manbalari oʻz ahamiyatini koʻrsatadi.

Pedagog faoliyatining **ijodiylik xususiyati** uning belgilangan maqsadga yerishish yoʻlida oʻz imkoniyatlarini qay darajada ishga moslanganligi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham pedagogik faoliyatning ijodkorlik xususiyati muhim ahamiyatga yegadir.

Pedagog shaxsining ijodkorlik imkoniyati pedagog tomonidan ijtimoiy tajribaning, psixologik-pedagogik, predmetli bilimlar, oʻziga xos, original qaror qabul qila olishi uchun yangi gʻoyalar, koʻnikma va malakalar, novatorlik koʻnikmalarini qay darajada oʻzlashtirilganligini namoyon qiladi. Yuqori yeruditsiyali, puxta kasbiy tayyorgarlikka yega boʻlgan pedagog yuzaga kelgan vaziyatni chuqur tahlil qilib, muammoning mohiyatini anglagan holda ijodiy tafakkuri orqali uni hal etishning original usullarini topa oladi va amalga qoʻllaydi.

Shunday qilib, pedagogik faoliyat maqsadining oʻziga xosligi oʻqituvchidan quyidagilarni talab qiladi:

-jamiyatning ijtimoiy vazifalarini (masalan, muhandis-pedagoglar tayyorlashni) toʻla anglab, oʻz shaxsiga qabul qilishi. Jamiyat maqsadlarining “oʻsib”, uning pedagogik nuqtai nazariga aylanishi;

-muayyan harakat va vazifalarga ijodiy yondashishi va h.k.

O'quvchilar qiziqishlarini e'tiborga olish, ularni pedagogik faoliyatning maqsadlariga aylantirish hamda o'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishlarini olib borishda bunga e'tibor berish pedagogik faoliyatning muhim shartidir.

Ko'rinib turibdiki, pedagogik faoliyatning bugungi kundagi bosh va pirovard maqsadi — har tomonlama barkamol insonni tarbiyalash hisolanib, u dinamik o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda, ijodiy imkoniyatlarini to'la ishga solib ham o'z manfaatlari uchun, ham davlat va jamiyat manfaatlari uchun maqsadni yuzaga chiqara olsin.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Жураев Б. Т. Деятельность педагога по гуманизации учебно-воспитательного процесса //Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI в.: материалы междунар. науч.-творч. форума. – 2017. – Т. 31.

2. Жураев Б. Т. Гуманизация дидактических отношений между учителем и учащимся в педагогических идеях Востока //VIII Лазаревские чтения" Лики традиционной культуры в современном культурном пространстве: ренессанс базовых ценностей?". – 2018. – С. 120-122.

3. Жураев Б. Т. Социально-духовное развитие студентов //Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития. – 2019. – С. 22-23.

4. Жураев Б. SHARQDA PEDAGOGIK FAOLIYATNING MAYDONGA KELISHI VA RIVOJLANISHI //Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. S/2. – С. 343-350.

5. Ходжаев Б. К., Жураев Б. Т. Повышение нравственно-эстетической культуры слушателей института повышения квалификации работников народного образования //Экономика и социум. – 2022. – №. 3-2 (94). – С. 1217-1222.

6. Amonov M. N. IJTIMOIIY-PEDAGOGIK FAOLIYATNI TASHKIL ETISHGA QARATILGAN JARAYON MAZMUNI //Экономика и социум. – 2023. – №. 4-1 (107). – С. 40-43.

7. Amonov M. ПЕДАГОГИК МАҲОРАТ ВА УНИНГ ЎҚИТУВЧИ ФАОЛИЯТИДА ТУТГАН ЎРНИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2023. – Т. 31. – №. 31.